

Hamkorlar

Kafedra ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tekshirish va akademik institutlar — Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, «O'zsuvta'mirsuvfoydalanish» birlashmasi, TIQXMMI qoshidagi «Irrigatsiya va suv muammolari» ilmiy-tadqiqot instituti, «Fizika-Quyosh» IIChB (tel: 71-233-12-71, ftikans@uzscince.net), MChJ UZGIP (tel: 71-242-27-76, uzgip@bk.ru), «Gidroproekt» OAJ, (tel: 71-253-14-65 gdib@inbox.uz) «O'zbekgidroenergo» AJ (tel: 71-230-33-50, devonxona@uzgidro.uz), Toshkent GESlar kaskadi (tel.: 71-236-60-00, ktashges@uzgidro.uz), OAJ «Suvmash»

(tel.: 71-295-13-00, office@suvmash.uz), O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «Nasos stantsiyalari, energetika va aloqa» boshqarmasi (tel.: 71-241-17-72, nasos@ agro.uz), bilan «Oliy ta'lif, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini yo'lga qo'yish borasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha» shartnomalar tuzilgan. Bundan tashqari TIQXMMI qoshidagi «Irrigatsiya va suv muammolari» ilmiy-tadqiqot instituti, «O'zsuvenergo» ixtisoslashgan birlashmasi hamda «Suvmash» OAJda kafedraning filiallari faoliyat ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2018 yildagi PQ-3702-sonli Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha bir qator ijobjiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Oliy ta'lif, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini yo'lga qo'yish borasida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha "O'zbekgidroenergo" aktsionerlik jamiyati hamda uning tarkibidagi "Chirchiq GESlar kaskadi" unitar korxonasi hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti o'ttasida tuzilgan shartnomalarga asosan talabalarga institutda olayotgan nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlash maqsadida Chirchiq GESida institutning Gidrotexnika qurilishi fakuliteti "Suv energiyasi va nasos stantsiyalaridan foydalanish" kafedrasining filialining ochilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbir "O'zbekgidroenergo" aktsionerlik jamiyatining kadrlar va oliy ta'lif muassasalari bo'yicha boshqarma boshlig'i Sunnatov Inoyat Soxibovich, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi kadrlar boshqarmasi boshlig'i Xurshid Lapasov, "Chirchiq GESlar kaskadi" unitar korxonasi direktori - Shadmanov Abdurasul Abdurashidovich" institutning Gidrotexnika qurilishi fakuliteti dekani Xasanov Baxriddin Baratovich tomonidan tantanali ravishda olib berildi.

Kafedra filialida institutning "Irrigatsiya tizimlarida suv energiyasidan foydalanish" bakalavriat ta'lif yo'nalishi 4 kursining 59 nafar talabalari "Gidroenergetik qurilmalardan foydalanish" fanidan hamda "Nasos stantsiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" va "Gidroelektrostantsiyalar qurilishi va ulardan foydalanish" magistratura mutaxassisligi 17 nafar 1 va 2 kurs magistrantlari "Gidroenergetik qurilmalar" hamda "Gidroelektrostantsiyalardan foydalanish" fanlaridan amaliy mashg'ulotlar davomida institutda olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashadi. Buning uchun filialda 20 va 40 o'ringa mo'ljallangan zamonaviy o'quv qurollari bilan (internet, videoproktor, televizor) jixozlangan 2 ta auditoriya va laboratoriya xonasi ajratilgan.

"Irrigatsiya tizimlarida suv energiyasidan foydalanish" bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalari "Gidroenergetik qurilmalardan foydalanish" fanidan 7, 8-semestr davomida 46 soat, "Nasos stantsiyalari va qurilmalaridan foydalanish va tashxisi" magistratura mutaxassisligi magistrantlari esa "Gidroenergetik qurilmalar" fanidan 80 saat hajmidagi amaliy mashg'ulotlarni "Chirchiq GESlar kaskadi"ning yetakchi va tajribali mutaxassislari olib borishadi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida talaba va magistrantlar GESning ishlash printsipi, turbina va gidrogenerator, yordamchi jixozlari, boshqaruv tizimi, ekspluatatsiya qilish, joriy va kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish kabi mavzularni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'lab, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

Kafedra filialida tizimli ravishda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar uchun dars jadvali TIQXMMI o'quv ishlari bo'yicha prorektori professor B.S.Mirzaev tomonidan tasdiqlangan.

Shuningdek, TIQXMMI rektoriprofessor O'.P.Umurzoqov va "O'zbekgidroenergo" AJ raisi A.A.Sanginov tomonidan tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomasiga asosan mazkur ta'lif yo'nalishidagi 30 nafargacha talabalar uchun har yili o'quv-ishlab chiqarish amaliyoti ham Chirchiq GES lar kaskadlarida olib borilib, ular ushbu ob'ektlargav ishlab chiqarish uchun ko'nikma hosil qilishadi.

Bundan tashqari, talaba va magistrantlar GES tarkibiga kiruvchi gidrotexnik inshootlar -derivatsiya kanali, naporli hovuz, suv qabul qilish inshootlari, turbina va so'rish quvurlari, suv tashlash inshootlari, olib ketish kanali kabi inshootlarning ekspluatatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etishib, yillik, yarim yillik, chorak, oylik va dekadalar bo'yicha suv sarfi hamda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiya miqdorini hisoblarini olib borish tartibini o'rganishadi.

Kafedra professor-o'qituvchilari, hamkorlik shartnomalari tuzilgan va filiallar tashkil qilingan korxonalar bilan: mutaxassislarining talabalarga ma'ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi, bakalavrilar malaka-bitiruv ishiga hamda magistrlarning dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilishlarini tashkil qilishi; magistr va bakalavrlarning o'quv amaliyoti hamda malaka-bitiruv oldi va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tishlari uchun laboratoriya va qurilmalardan foydalanishga imkoniyat yaratishi; o'zaro hamkorlikda yangi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni tashkil etishi; hamkorlikda yaratilgan sohaning ilmiy va ilmiy-texnologik muammolari bazasiga binoan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari izlanishlarning mavzularini belgilashga yordamlashishi; hamkorlikda sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi; kafedrada tayyorlana-yotgan bakalavr yo'nalishlari, magistrlik mutaxassisliklari, aspirant va doktorantlar tayyorlash maqsadida o'quv markazi yoki kafedralar filialini tashkil etishi; institutni muvaffaqiyatli tugatgan bakalavr va magistr-larni ish bilan ta'minlashda hamkorlik qilishlari kelishib olingan.

Oxirgi yillarda professor-o'qituvchilar, «Innovatsion ta'lifni loyihalashtirish, rejalshtirish va uni joriy etish texnologiyasi», «Ta'limda innovatsion texnologiyalar kursi» va boshqa yo'nalishlar bo'yicha malakalarini oshirdilar. Malaka oshirish na faqat yurtimiz oliy ta'lif muassasalarida balki chet el universitetlarida ham olib borildi. Kafedra dotsenti Majidov T.Sh. Erasmus Mundus External Cooperation Window dasturi doirasida Shvetsianing Lund universitetida 3 oylik malaka oshirish kurslarida bo'lib qaytdi. Hozirgi kunda Lund universiteti bilan aspirantlar almashish to'g'risida kelishuv imzolangan. Kafedra dotsenti T.Majidov 2012 yilning 23 apreldidan 02 mayigacha Yaponianing "Kubota" korporatsiyasida bo'lib, Jizzax viloyatida 3-son nasos stantsiyasiga o'rnatish uchun tayyorlangan nasos agregatlarini qabul qilishda hamda "Nasos agregatlarini ishlab chiqarayotgan zavodlarda o'tkaziladigan test sinovlarida ishtirok etish va belgilangan tartibda rasmiylashtirish va natijasi yuzasidan dalolatnoam tuzish" ishlarida qatnashdi. Zavod va institut ma'muriyati o'rtasida har yili, kafedradagi yo'nalish va mutaxassislik talabalari, ishlab chiqarish amaliyotini Yaponianing Xirakata zavodida o'tishlari to'g'risida Sharhnomal tuzildi. Bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga hamda kafedra laboratoriyasini jihozlashga ham zavod ma'lum miqdorda mablag' ajratish istagini bildirdi.

Kafedrada o'quv, ishlab chiqarish va bitiruv oldi amaliyotlarini o'tkazishga juda mas'uliyat bilan qaraldi. O'quv amaliyotlarida talabalarni kafedra laboratoriysi bilan tanishtirish bilan bir qatorda, Toshkent shahri va viloyatidagi nasos stantsiyalari, nasoslarni ishlab chiqaruvchi va ta'mirlov-chi korxonalar, gidroelektrostantsiyalar, noana'naviy energiya manbalaridan foydalanish — quyosh energiyasi yordamida isitish va elektroenergiya olish qurilmalari ko'rsatiladi. Ishlab chiqarish amaliyotlari, qurilayotgan, ta'mirlanayotgan va rekonstruktsiya qilinayotgan energetik ob'ektlar o'tkaziladi. Surxondaryoda qurilayotgan To'palang suv ombori qoshidagi GES, Chirchiq-Bo'zsuv energetik kaskadidagi GESlar, Farhod GESi, Ohangaron va Ertoshsoy GESlari, nasoslar ishlab chiqaruvchi va ta'mirlovchi «Suvmash» zavodi, rekonstruktsiya qilinayotgan «Norpay» nasos stantsiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar «Nasos stantsiyalari, energetika va aloqa» boshqarmalarining nasos stantsiyalari va boshqalar shular

jumlasidandir. Bitiruv oldi amaliyotlari ham yuqorida keltirgan tashkilotlarda o'tkaziladi va malaka-bitiruv ishlarini tayyorlash uchun ulardagi ob'ektlar to'g'risida materiallar to'planadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti «Cuv energiyasi va nasos stantsiyalaridan foydalanish» kafedrasining soha bo'yicha ishlab-chiqarish bilan uzviy aloqasini ta'minlash, talabalarga bilim berish va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek joriy va ishlab-chiqarish amaliyotini tashkil qilish, amaliy hamda homiylik yordami ko'rsatish bo'yichachora-tadbirlar rejasiga asosan kafedraga O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zsuvenergo» ixtisoslashgan Birlashmasi, «Quyi-Sirdaryo» ITXB hamda «Qarshi magistral kanali» boshqarmalari birkiltilgan. Hozirgi kunda ushbu tashkilotlarning amaliy yordami natijasida, kafedra laboratoriyalari jihozlari butlanmoqda, o'quv jarayonini uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda, talabalar va professor-o'qituvchilarni ekspluatatsiya qilinayotgan va qurilayotgan gidroenergetik ob'ektlar bilan tanishtirish ishlari olib borilmoqda, gidroenergetik ob'ektlardi talabalarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil qilinib o'tkazilmoqda.

Kafedra professor-o'qituvchilari pedagogik faoliyati bilan bir qatorda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda suv tanqisligi davrida nasos qurilmalarini o'rnatish, ularni ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash, energoresurslardan samarali foydalanish to'g'risida dala va o'quv seminar mashg'uotlari o'tkazishadi, ommaviy-axborot vositalari-televidenie, radio hamda gazeta va jurnallarda har xil maqolalar bilan chiqishlar qiladilar.